Elektrodinamika bo'limini o'qitishda zamonaviy o'quv-uslubiy adabiyotlar va ilmiy tadqiqotlarning ilmiy-metodik tahlili	1842
Abdullayev Botirxon Ismoilovich	
Bolalar adabiyoti ta'limida multimedia vositalaridan foydalanish masalasida tushunchalar tahlili pedagogik muammo sifatida	1846
Abdullayeva Moxidilxon Dilshodbek qizi	
Biologiya ta'limida konseptual modelni qo'llash va uning samaradorligini baholash	1850
Abdurasulova Gulruh Xabibullaevna	
Dizatriyal bolalarning ovoz va nafasni rivojlanganlik holatini eksperimental o'rganish natijalari	1854
Abidova Nilufar Zakirovna, Shaxodjayeva Nilufar Raimjonovna	
Kasbiy etika va deontologiya: bo'lajak shifokorlar tarbiyasida innovatsion yondashuvlar	1857
Ahmedova Nigora Dadahonovna	
Tabiiy fanlar va matematika integratsiyasi orqali ekologik mas'uliyatni shakllantirish metodikasi	1862
Ashurova Gulhayo Nurali qizi, Eshboyeva Surayyo Qaxramon qizi	
Inklyuziv ta'lim tizimida imkoniyat cheklangan o'quvchilarni o'qitishga lingvopedagogik yondashuv	1865
Asranbayeva Munojot	
Chet tili mashg'ulotlarida yozma nutqni o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari	1868
Atayev Shukur-Ali Ayub-Aliyevich	



Ekologik muhit asosida bolalar psixo-fiziologik rivojlanish jarayonini takomillashtirish.....	1872
Axmedjonova Nozigul Zaripovna	
O'smir yoshlarda axborotdan foydalanish madaniyatini shakllantirish	1876
Baxrillayeva Moxichexra Raxmatillayevna	
Xalqaro baholash dasturi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini metodik tayyorgarligini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari va shart-sharoitlari	1880
Bayzakova Malika	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimining zamonaviy rivojlanish yo'nalishlari.....	1884
Berdiyeva Muborak Baxtiyorovna, Saydinova Barno	
O'yin texnologiyalari asosida matematik bilimlarni takomillashtirish va uning ahamiyati.....	1889
Botirova M. B.	
Talabalar orasida ko'p uchraydigan akademik muvaffaqiyatdan qo'rqish va uning yechimlari.....	1892
Celal Al'gan	
Kasbiy faoliyat xavfsizligiga tayyorgarlik izlanishlari.....	1896
D. G'. Akramova	
Matematika darslarida o'yinli texnologiyalar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish	1899
Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Badridinov Nusratbek Xusniddin o'g'li	
Ibn Sino asarlarida emotsiyalarning shaxs faoliyatiga ta'siri talqini	1905
Dostanova Kamola Alisher qizi	
Dual ta'lim jarayonini boshqarishda raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar	1909
Egamberdiyeva Yulduz Urinboevna	
The Sociolinguistic Effectiveness of Using Authentic Texts in the Training of Prospective English Language Teachers	1912
Elyor A Pazilov	
Elektron resurslar asosida ona tili va o'qish savodxonligi fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish usullari	1916
Ermatova Gullola Ziyod qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik-madaniy ko'nikmalarini shakllantirishda kognitiv texnologiyalardan foydalanish metodikasi.....	1919
Eshmo'minova Sitara Xayrullo qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqaruv madaniyatini shakllantirishda tizimli-vaziyatli yondashuvning nazariy asoslari	1922
Gapparova Zilola Neymat qizi	
Raqamli ta'lim muhitida kreativ tafakkurni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.....	1926
Hayitboyeva Zarina Otanazarovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga arifmetik amallarni tushuntirishda zamonaviy metod va texnologiyalardan foydalanish usullari.....	1930
Hojimamatova Jamila, Ahmedova Umidaxon Yodgorjon qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ kompetensiyani rivojlantirish	1933
Inobatxon Toshpo'latova	
4-sinf o'qish savodxonligi darsligidagi "Qarg'a va paxta" hikoyasi orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini shakllantirishda savol va topshiriqlarning o'rni	1937
Jo'liboyeva Mahliyo Hamro qizi, Sayfiddinova Jamila Ziyodulla qizi	
Mantiqiy tafakkur tushunchasi mohiyati.....	1941
Jo'rayev Shuhratbek Maxamadaliyevich	
Developing Tolerance Skills in Future Teachers During their Professional Training.....	1945
Joldasbaeva Arzigul Muratbaevna	
O'quvchilarda aksiologik yondashuvlar asosida empatik ko'nikmalarni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari	1948
Jumanov Erdavlet Sharifjon o'g'li	
Yo'l harakati xavfsizligi va uni maktabgacha ta'limda o'ziga xos xususiyatlarining ilmiy-metodologik asoslari	1952
Jumayev Yunus Rashidovich	
Maktabgacha ta'limda ekologik tarbiya berish jarayonidagi innovatsion yondashuvlar.....	1959
Sayfullayev G'ulom Maxmudovich, Jurayeva Iroda Botirovna	
An'anaviy laboratoriya mashg'ulotini o'tkazish metodikasi	1964
Karimov Ilhom Normamatovich	
Globalashuv sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish	1969
Karimov Ravshanbek Rizomatovich	
Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarning sensor etalonlarini shakllantirishning ahamiyati.....	1973
Kayumova Dilnoza Patxulla qizi	

Fizika fanini o'qitishda o'quvchilarning epistemik faolligini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish samaradorligi.....	1978
Madumarov Shodonbek Az'amjonovich	
Chet tilini o'qitishda dars rejalashtirish modellarining qiyosiy tahlili.....	1982
Mahkamova Dilshoda Shuhrat qizi	
Yoshlar o'rtasida gemblinning psixologik omillari va oqibatlar.....	1986
Melibayeva Ro'zaxon Nasirovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda og'zaki muloqot madaniyatini rivojlantirishda ertakterapiyaning ahamiyati.....	1990
Murodova Farangis G'anisherovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida integratsiyalashgan mashg'ulotlar jarayonida bolalarning kommunikativ nutqlarini rivojlantirishning asosiy tamoyillari	1994
Muxtorova Moxiraxon Ma'rufjon qizi	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarini muzey pedagogikasi vositasi orqali tarixiy tafakkurini rivojlantirishning modeli	1997
Niyozov Javlonbek Jaxongir o'g'li	
Ingliz tilini o'rgatishda interrogativ vositalarning "MYTBT" moduli orqali ifodalanishi	2003
Normamatova Dilfuza Turdikulovna	
Biologiya darslarida ekologik ekskursiyalarni tashkil etishning amaldagi holati	2008
Quldosheva Dilso'z Sunnatovna	
Maktabgacha 6–7 yosh bolalarda jismoniy rivojlantirish va madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni shakllantirish.....	2011
Romanova Lola Karimbayevna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni mantiqiy fikrlashga o'rgatishda TRIZ texnologiyasidan foydalanish.....	2014
Rustamova Gulmira Yoryigit qizi	
Ikkinchi tilni o'rganishda "Chaynovord" metodini qo'llashning afzalliklari va kamchiliklari	2018
Sadinov Oybek Ziyot o'g'li	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali pedagoglarning kreativligini rivojlantirish	2021
Saydullayeva Gulasal Umidjon qizi	
Ish beruvchilar bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan loyiha topshiriqlari asosida ESP kurslarini amaliyotga yo'naltirish va talabalarning kasbiy ingliz tili kompetensiyalarini shakllantirish	2024
Shermuxevedova Dilnozaxon Raximjanovna	
Raqamli ta'lim muhitida o'quv resurslarini yaratishning raqamli-didaktik mazmunini rivojlantirish metodikasi	2028
Shirinov Feruzjon Shuxratovich	
Og'ir atletikachilarning boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida portlovchi kuchni rivojlantirish samaradorligi.....	2031
Tojimatov Oybekjon Dilmurodjon o'g'li	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida STEAM xalqaro dasturini qo'llash metodikasi	2034
Tojiyeva Iroda Sadatovna, Shoimov Anvar Mamarizayevich	
Interfaol metodlardan foydalanib matematika darslari samaradorligini oshirish	2039
Toshboyeva Saidaxon Rahmonberdiyevna, Nishonova Shahnozaxon Ro'zali qizi	
Maktabda fizika darslarida ekologik mazmundagi masalalardan foydalanish	2043
Tursunov Alisher Isoqovich, Erniyazova Shaxnoza Xurram qizi	
Taniqli kimyogar olimlarning ijodiy faoliyatini o'rgatish metodikasi	2046
Ubaydullayeva Navruza Ne'matovna	
Muhandislik kompetensiyalariga ega zamonaviy texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlash	2050
Umarov Abdurasul Abduraximovich	
Talabalarda mediasavodxonlik fani asosida konseptual tahlil kompetensiyalarini takomillashtirish metodikasi.....	2058
Umarov Xusanboy Rustamovich	
Pedagogical-Psychological Features of Forming Research Competences.....	2062
Usmanova Nargiza Kudratullayevna	
Qasddan badanga yengil shikast yetkazish jinoyatining ijtimoiy salbiy oqibatlar (yuridik va ijtimoiy-falsafiy tahlil)	2065
Xaidarov Rahmatullo Ergashevich, Amirxo'jayev Shukurjon Qurbanovich	
Talabalar sog'lig'iga ta'sir qiluvchi zamonaviy raqamli texnologiyalar va ularni boshqarish tizimlari	2069
Xaqiqatbekov Zafarbek Shavkatbek o'g'li	
Tez tibbiy yordam fanida stressni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishning integrativ-metodik modeli ...	2073
Xasanov Kamoliddin Ulug'bek o'g'li	
Talabalik davrida hayotiy qadriyatlar shakllanishining psixologik xususiyatlari	2080
Xayrullayeva Zebiniso Toxirovna	



Informatsion-analitik kompetentlik iborasining pedagogika va falsafa fanlari misolida konseptual tadqiqi..	2085
Xolmatova Elnura Sherali qizi	
Emotsional intellekt rivojlanishida ijtimoiy muhitning psixologik ahamiyati	2088
Xudoyqulova Shoiri Husanovna	
Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar asosida dars samaradorligini oshirish metodikasi	2091
Xurramova Mehriniso Shamsiddin qizi	
The Adaptation Characteristics of the Movement Analyzer are Influenced by Physical Exercise	2094
Yoldasheva Roila Jumaevna, Fayziyeva Kibriyo Tuvlanovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda faol fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish	2098
Yuldasheva Dilshoda To'liqinova	
Geometrik isbotlashlarni o'rgatishda dasturiy vositalardan foydalanishning innovatsion yondashuvlari	2102
Yunusova Dilfuza Ismailovna, Toxirova Malika Muzaffar qizi	
ESP (maxsus maqsadlar uchun ingliz tili) dasturlarida vazifaga yo'naltirilgan biznes kommunikatsiyasi orqali oliy ta'limni mehnat bozori talablariga moslashtirish	2106
Yunusova Feruzaxon Xodjakbarovna	
Genderga oid qarashlarning pedagogik bilimlar strukturasidagi ahamiyati	2109
Yunusova Xolidaxon To'liqinjon qizi	
Integrativ yondashuv orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida kritik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali didaktik mexanizmlari	2113
Zokirova Ma'suma Qahramonjon qizi	
Ta'lim klasterlarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish	2116
Badalova Maqsuda Umarovna	
Malakali kurashchilarda gavda-bel va qo'l-panja mushaklarining absolyut maksimal kuchini bir o'my davomida o'sish sur'ati	2119
Mirzanov Sherzod Sirliboyevich	
Технологии формирования коммуникативных навыков у детей раннего возраста	2123
Назарова Эльвира Наримановна	
Роль акмеологического подхода в оценке качества профессиональной подготовки будущих учителей	2127
Шафига Тахирова	
Этимологические справки к словарным словам школьных учебников по русскому языку по традиционной системе обучения	2131
Эшанкулов Хамракул Маматкулович	

AN'ANAVIY LABORATORIYA MASHG'ULOTINI O'TKAZISH METODIKASI

Karimov Ilhom Normamatovich

Qarshi davlat texnika universiteti, dotsent v. b.

Annotatsiya: An'anaviy laboratoriya mashg'ulotini o'tkazish metodikasi ta'lim jarayonida nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Bunday mashg'ulotlarda talabalar o'qituvchi rahbarligida tajribalar o'tkazadilar, o'lchash asboblari bilan ishlashni, natijalarni tahlil qilish va ilmiy asosda xulosa chiqarishni o'rganadilar. Laboratoriya mashg'ulotlarini puxta tashkil etish talabalar faolligini oshiradi, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantiradi. Shuningdek, xavfsizlik qoidalariga rioya etish, jihozlardan to'g'ri foydalanish va tajriba natijalarini ilmiy izohlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bois an'anaviy laboratoriya mashg'ulotlari talabalarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytiruvchi samarali ta'lim shaklidir.

Kalit so'zlar: jihozlar, o'lchash asboblari, sxemalar, o'zgarmas tok, sim, rezistor, akkumulyator, induktiv g'altak, almashlab ulagich, po'lat o'zak, kesim yuzi.

Abstract: The methodology of conducting traditional laboratory classes plays a significant role in strengthening theoretical knowledge through practical skills in the educational process. In such classes, students, under the instructor's guidance, conduct experiments, operate measuring instruments, analyze results, and formulate scientifically grounded conclusions. Proper organization of laboratory classes increases student engagement, fosters independent thinking, and encourages creativity. Moreover, adherence to safety regulations, correct use of equipment, and scientific interpretation of experimental outcomes contribute to the development of professional competencies. Therefore, traditional laboratory classes serve as an effective educational form that enhances students' professional training.

Key words: equipment, measuring instruments, circuits, direct current, wire, resistor, accumulator, inductive coil, switch, steel core, cross-sectional area.

Аннотация: Методика проведения традиционных лабораторных занятий играет важную роль в укреплении теоретических знаний посредством практических навыков в образовательном процессе. На таких занятиях студенты под руководством преподавателя проводят эксперименты, работают с измерительными приборами, анализируют результаты и формируют научно обоснованные выводы. Правильная организация лабораторных занятий способствует повышению учебной активности, развитию самостоятельного мышления и творческого подхода. Кроме того, соблюдение правил безопасности, корректное использование оборудования и научная интерпретация результатов способствуют формированию профессиональных компетенций. Таким образом, традиционные лабораторные занятия являются эффективной формой обучения, укрепляющей профессиональную подготовку студентов.

Ключевые слова: оборудование, измерительные приборы, схемы, постоянный ток, провод, резистор, аккумулятор, индукционная катушка, переключатель, стальной сердечник, площадь сечения.

KIRISH

Mamlakatimizda ta'lim tizimini modernizatsiyalashga, jumladan oliy ta'limni modernizatsiyalashga qaratilgan salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"ga PF-5847-sonli¹ Farmoniga ko'ra belgilangan vazifalarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarining kasbiy kompetensiyasini va shaxsiy fazilatlarini shakllantirishda murakkab kompyuter dasturlari hamda maxsus laboratoriya uskunalaridan foydalanishni o'z ichiga oluvchi ta'limning faol va interfaol usullari juda muhim hisoblanadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"ga PF-5847-sonli Farmoni: <https://lex.uz/docs/-4545884>



Laboratoriya mashg'uloti boshqa o'qitish shakllariga nisbatan kasbiy masalalarni yechish hamda mutaxassis uchun zarur bilimlarni shakllantiradi. Odatda laboratoriya mashg'ulotining maqsadi nazariy mashg'ulotlarda olingan mavhum o'quv materialini aniqlashtirish, tajribada maxsus vositalardan foydalanish, o'lchov asboblarning o'lchash chegaralarini o'rnatish, o'lchash asboblari bilan ishlash va kerakli o'lchovlarni olishda malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishdir. Laboratoriya mashg'ulotini o'tkazish va tashkil etish shakli an'anaviy ko'rinishda bo'lib, unda talabalar mustaqil ishlaydilar. Biroq bu yetarli emas, zamonaviy mutaxassis mustaqil ravishda bilimni shakllantirishi bilan birga ijodiy yangiliklar yaratish qobiliyatiga ham ega bo'lishi kerak.

Oliy ta'lim talabalarining malaka va ko'nikmalarini shakllantirish uchun o'quv jarayonidagi, xususan laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarning o'tilishi, talabalarni qoniqtirishi, ya'ni nazariy mashg'ulotlarda o'rganilgan mavzularni chuqurroq o'zlashtirishi, yangi fikrlarga ega bo'lishi va olingan natijalar bo'yicha xulosa chiqarishi lozim.

Shunday qilib, laboratoriya mashg'uloti nazariy va metodik bilimlarni umumlashtiruvchi, tadqiqot xarakteriga ega bo'lgan yagona o'quv jarayonidir. Laboratoriya mashg'uloti talabadan mustaqillik va faollikni talab etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

An'anaviy laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish metodikasi ilmiy adabiyotlarda elektrotexnika fanining amaliy o'qitilishida muhim bosqich sifatida baholanadi. A. S. Karimovning "Nazariy elektrotexnika" asarida laboratoriya ishlarining maqsadi, undagi tajriba jarayoni va o'lchov asboblari bilan ishlashning nazariy asoslari yoritilgan. Muallif ta'kidlaydiki, laboratoriya mashg'ulotlari nazariy bilimlarni mustahkamlash, talabani fizik jarayonlarni amaliy idrok etishga yo'naltirishda asosiy o'rin tutadi. Shuningdek, elektrotexnik jarayonlarning magnit, tok va kuchlanish kabi parametrlarini bevosita tajriba orqali kuzatish bu fan o'qitilishining samaradorligini oshiradi.

S. F. Amirov, M. S. Yoqubov va N. G. Jabborov tomonidan yozilgan "Elektrotexnikaning nazariy asoslari" kitobida laboratoriya mashg'ulotlarining texnik mazmuni, o'lchov chegaralarini to'g'ri tanlash, sxemalarni yig'ish va xavfsizlik qoidalariga amal qilish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar berilgan. Mualliflar ayniqsa tokli o'tkazgich va g'altakning magnit maydoni bilan bog'liq tajribalarni talabalarda to'g'ri tasavvur shakllantiruvchi asosiy amaliy mashg'ulotlardan biri sifatida qayd etadi. Ushbu adabiyotlarda an'anaviy laboratoriya darslarining strukturasini, o'qituvchi rahbarligidagi faoliyat va talabalar mustaqilligini oshirish mexanizmlari batafsil bayon qilingan.

M. M. Mirxaydarov va A. S. Karimovning "Elektrotexnika va elektronika asoslari" asarida laboratoriya ishlarining metodik ta'minoti, asbob-uskunalaridan to'g'ri foydalanish, tajriba natijalarini ilmiy tahlil qilish konsepsiyasi yoritilgan. Shuningdek, A. A. Glebovich tomonidan ishlab chiqilgan laboratoriya ishlari bo'yicha qo'llanmada sanoat elektronikasiga oid tajribalarni o'tkazish tartibi, sxemalar bilan ishlash madaniyati va o'quvchilarda amaliy ko'nikma hosil qilishning metodik yondashuvlari berilgan. Ushbu manbalar an'anaviy laboratoriya mashg'ulotlarining o'qitish jarayonidagi o'rni va ularning kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashdagi ahamiyatini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi an'anaviy laboratoriya mashg'ulotlarining samaradorligini aniqlash maqsadida o'quv jarayonida qo'llanilgan amaliy faoliyatni kuzatish, tajriba-sinov ishlari orqali ma'lumotlar yig'ish hamda talabalarining o'zlashtirish darajasini baholashga asoslanadi. Ma'lumotlar laboratoriya mashg'ulotlarida o'tkazilgan kuzatishlar, o'lchash jarayonlari, talabalarining amaliy topshiriqlarni bajarish tezligi va aniqligi, shuningdek, nazorat savollariga bergan javoblari orqali to'plandi. Tajriba davomida o'tkazilgan o'lchovlar asbob-uskunalaridan foydalanish ko'nikmalari va magnit maydon bilan bog'liq jarayonlarni tushunish darajasini aniqlash imkonini berdi. Olingan natijalar taqqoslash va tahlil qilish usuli orqali qayta ishlanib, an'anaviy metodning laboratoriya sharoitida bilimlarni mustahkamlashga ta'siri statistik va sifat tahlili asosida baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'n yillab o'tkazilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, an'anaviy dars o'tish ta'limning o'ziga xos modellaridan biri bo'lib qolmoqda.

An'anaviy dars – muayyan muddatga mo'ljallangan, ta'lim jarayoni ko'proq o'qituvchi shaxsiga qaratilgan, mavzuga kirish, yoritish, mustahkamlash va yakunlash bosqichlaridan iborat ta'lim modelidir.

O'quv materiali yangi va ancha murakkab bo'lganda, an'anaviy dars ko'p hollarda ta'lim jarayonining birdan-bir metodi bo'lib qolmoqda.

Ma'lumki, an'anaviy darsda ta'lim jarayonining markazida o'qituvchi turadi. Shu bois, ba'zida an'anaviy darsni markazida o'qituvchi turgan o'qitish usuli deb ham ataladi.



Markazda o'qituvchi bo'lgan o'quv jarayonining, darsning maqsadi va uning ijobiy jihatlari quyida keltirilgan asoslarga tayanadi:


- o'quvchining o'qishga bo'lgan ishtiyoqini oshirib borish;
- ilgari egallagan bilimlarni ham inobatga olish;
- o'qish jarayoni tezligini muvofiqlashtirish;
- o'quvchi tashabbusi va majburiyatini qo'llab-quvvatlash;
- amaliyot orqali o'rganish;
- ikki tomonlama fikr-mulohazalar bilan ta'minlash;
- o'qish jarayonini to'g'ri yo'lga qo'yish;
- o'qituvchi – o'quvchilar uchun o'quv jarayonini yengillashtiruvchi shaxs;
- o'quv jarayonini baholash.

An'anaviy dars o'tish modelida ko'proq ma'ruza, savol-javob, amaliy mashq kabi metodlardan foydalaniladi. Shu sababli, bu hollarda an'anaviy dars samaradorligi ancha past bo'lib, o'quvchilar ta'lim jarayonining passiv ishtirokchilariga aylanib qoladilar. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda unga turli tuman o'quvchilar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish o'quvchilarning o'zlash-tirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning qiziqishini orttirib borish, ularning ta'lim jarayonidagi faolligini muntasil rag'batlantirib turish, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda bahs, munozara, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, tadqiqot, rolli o'yinlar metodlaridan foydalanish, rang-barang qiziqarli misollarni keltirish, o'quvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash, rang-barang baholash usullaridan foydalanish, ta'lim vositalaridan o'z vaqtida va o'rnida foydalanish talab etiladi.

An'anaviy dars o'tishning asosiy tarkibiy qismlari – kirish, yangi mavzuni yoritish, "teta-poya" mashq, yo'naltirib turiluvchi mashq, mustaqil bajariladigan mashq, o'quvchilar tushunarlilik darajasini tekshirish, darsni yakunlash.

1-jadval: Instruksion-texnologik karta. Tokli o'tkazgich va g'altakning magnitaviy maydonini o'rnatish

Elektr sxemasi	Ishni bajarish tartibi	Tavsiyanoma	Kerakli asboblarda va ko'rgazmali qurollar	Uyga vazifa
	Talabalar gurux mashg'ulotida bajariladigan topshiriqlar, ketma-ketlik, instruksiyasi-texnologik karta va uning mazmuni tushuntiriladi. Instruksion – texnologik kartada bajariladigan ishlarning ketma-ketligi, qaysi operatsiya qanday tartibda bajarilishi elektr qurilmaning kinematik elektr sxemasi chizmasi, topshiriqlarni bajarish yuzasidan tavsiyalar hamda uyga vazifa berish aks ettirilgan bo'ladi. Instruksion – texnologik kartada bajariladigan ishlarning ketma-ketligi, qaysi operatsiya qanday tartibda bajarilishi elektr qurilmaning kinematik elektr sxemasi chizmasi, topshiriqlarni bajarish yuzasidan tavsiyalar hamda uyga vazifa berish aks ettirilgan bo'ladi.	Elektr toki o'tib tursa shu o'tkazgich atrofida magnit maydoni hosil bo'lishini tekshirib ko'rish. O'tkazgich atrofida parma qoidasiga asosan magnit maydoni vujudga keladi. Sxemani yig'ish o'tkazgichni akkumlyatorga ulamay, kompas strelkasi vaziyatini aniqlash. o'tkazgichlarni bosh va oxirgi uchlarini ajratib olish ishini bajarish davomida elektr xavfsizligi qoidalariga amal qilish.	5 A li o'zgarmas tok ampermetri 1 dona, 10 V li o'zgarmas tok voltmetri 10 Om, 5 A li sim rezistor 1-dona, 5JN-45 akkumlyatori 1-dona, 8 Om li induktiv g'altagi 1-dona, 25 A li, 50 V va ikki yo'nalishli almashlab ulagich 1-dona, po'lat o'zak 1-dona, kesim yuzi 2,5 mm² uzunligi 1,5 m bo'lgan ShRPC markali ulash simlari.	Talabalarga uyga vazifa berish. O'tkazgich va g'altakdan o'tayotgan tokni yo'nalishiga bog'liq holda taqsimlashni o'rganish. Tokli o'tkazgich va g'altakning magnit maydoni haqidagi ma'lumotlarni o'rganib kelish. o'lchash asboblardan foydalanish tartibani aniqlash.

An'anaviy (ta'lim jarayoni markazida o'qituvchi bo'lgan) metodlarning afzalliklari: ma'lum ko'nikmalarga ega bo'lgan va aniq ma'lum tushunchalarni, fanni o'rganishda foydali bo'lishi; o'qituvchi tomonidan o'qitish



jarayonini va o'qitish muhitini yuqori darajada nazorat qilinishi; vaqtdan unumli foydalanish; aniq ilmiy bilimlarga tayanadi.

Laboratoriya mashg'ulotini o'tkazish metodikasi

Mavzu: Tokli o'tkazgich va g'altakning magnitaviy maydonini o'rnatish.

Mashg'ulotga ajratilgan vaqt: 4 soat.

Mashg'ulot o'tkazish joyi: zarur moslama va asbob-uskunalar, jihozlar bilan ish o'rnlari ega maxsus laboratoriya xonasi.

Mashg'ulotning moddiy ta'minoti:	5 A li o'zgarmas tok ampermetri 1-dona, 10 V li o'zgarmas tok voltmeteri 10 Om, 5 A li sim rezistor 1-dona, 5JN-45 akkumlyatori 1-dona, 8 Om li induktiv g'altagi 1-dona, 25 A li, 50 V va ikki yo'nalishli almashlab ulagich 1-dona, po'lat o'zak 1-dona, kesim yuzi 2,5 mm ² uzunligi 1,5 m bo'lgan ShRPC markali ulash simlari.
Asosiy maqsad:	O'tkazgichdan tok o'tganda o'tkazgich atrofida magnitaviy maydon vujudga kelishi bilan tanish magnit kuch chiziqlarining to'g'ri chiziqli o'tkazgichdan va g'altakdan o'tayotgan tokning yo'nalishiga bog'liq ravishda tarqalishini va yo'nalishini talabalarga o'rgatish va ularni bilimlarini mustahkamlash.
Tarbiyaviy maqsad:	Talabalarda laboratoriya – amaliy mashg'ulotlariga ongli munosabatda bo'lish ruhini tarbiyalash, ularda asbob-uckunalaridan foydalanish, ularni avaylash va nisbatan yaxshi munosabatda bo'lish, ko'nikmalarini shakllantirishdir.

Laboratoriya mashg'ulotini borishi

Tashkiliy qism

- talabalarining guruhga kirishi va salomlashish;
- talabalarining davomatini tekshirish;
- o'quv joyining va talabalarining dars mashg'ulotlariga tayyorgarlik darajasini aniqlash.

I. Kirish yo'l-yo'riq

- Talabalar laboratoriya mashg'ulotining mavzusi va ishlash maqsadi bilan tanishtiriladi. Tokli o'tkazgich va g'altakning magnitaviy maydoni bo'yicha tajriba o'tkazish tartibi tushuntiriladi. Talabalarga xavfsizlik texnikasi qoidalari izohlanadi va bu haqda maxsus jurnalga qayd etilib, talabalarining imzosi olinadi.
- Mashg'ulotning mazmuni.


Elektr toki o'tib turganda o'tkazgich atrofida magnit maydon hosil bo'lishi haqidagi qoidaning to'g'riligini tekshirish uchun o'zgarmas tok manbai, vertikal joylashtirilgan o'tkazgich, rubilnik va kompas kerak bo'lishi aytiladi. O'tkazgich atrofida esa Parva qoidasiga asosan magnit maydon vujudga kelishi tushuntiriladi.

3. Nazorat va baholash.

Mashg'ulot davomida bajariladigan ishlar yuzasidan talabalarining bilimi nazorat qilinadi va baholanadi. Bu jarayonda o'qituvchi quyidagi savollarni berishi mumkin:

- o'tkazgich yoki g'altakdagi tok bilan magnitaviy oqim o'rtasida qanday bog'lanishlar bor?
 - magnitlovchi kuch va magnitaviy oqim qanday birliklarda o'lchanadi?
 - g'altakning qutubliligini qanday o'zgartirish mumkin?
 - agar rubilnik uzilsa, o'tkazgichdagi tok va uning atrofidagi magnit maydon nima uchun yo'qoladi?
 - magnit maydonining o'lchov birligi.
- Ishni bajarish tartibi:

Talabalar guruh mashg'uloti doirasida bajariladigan topshiriqlar, ketma-ketlik, instruktsion–texnologik karta va uning mazmuni bilan tanishtiriladi.



1-rasm: Magnit kuch chiziqlarining yo'nalishini aniqlash sxemalari: a) to'g'ri o'tkazgich ulab; b) g'altak ulab (Boshi – B, Oxiri – O, Начало – N, Конец – K)



Instruktsion–texnologik kartada bajariladigan ishlarning ketma-ketligi, qaysi operatsiya qanday tartibda bajarilishi, elektr qurilmaning kinematik elektr sxemasi, topshiriqlarni bajarish yuzasidan tavsiyalar hamda uyga vazifa aks ettirilgan bo'ladi (1-jadval).

5. Xavfsizlik yo'riqnomasi:

Topshiriqlarni bajarishdan oldin talabalar rioya qilishlari kerak bo'lgan xavfsizlik qoidolari bilan tanishtiriladi va ular tomonidan qanchalik o'zlashtirilgani aniqlanadi.

6. Zvenolarga bo'lish:

Talabalar guruhini ish o'rinlari bo'yicha zvenolarga taqsimlash.

№	Bajariladigan ishlar mazmuni	Zveno talabalari soni	Zvenolar almashinuvi
1	Jihozlar, o'lchash asboblari va ularning o'lchash sxemalari bilan tanishtirish	3	1234
2	Sxemani yig'ish (1-rasm, a): o'tkazgichni akkumulyatorga ulamasdan kompas strelkasining vaziyatini aniqlash. Elektr zanjirni berkitib strelka vaziyatini tekshirish	3	2341
3	Perklyuchatel (almashlab ulagich) yordamida elektr zanjiridagi tok yo'nalishini o'zgartirib, kompas strelkasining vaziyatini yana tekshirish va taqqoslash. O'tkazgichni N va K nuqtalardan ajratish	3	3421
4	Elektr zanjirining N va K qismlariga g'altak L ni ulab (1-rasm, b), 2 va 3-punktlarni taqqoslash	3	4132
5	Hisobot tuzish	3	1234

Zvenolardagi talabalarga zarur nazariy va o'lchov asboblari, asbob–uskunalar va qo'llanmalar tarqatiladi. Barcha zarur narsalarni, instruktsion–texnologik kartalarni olgan zveno talabalari o'z ish o'rinlarida berilgan topshiriqlarni mustaqil bajarishga kirishadilar.

II. Joriy yo'l–yo'riq

Talabalarining mustaqil ishiga o'qituvchi rahbarlik qiladi, qiyinchilik tug'ilganda yordam beradi, xato va kamchiliklarni tuzatib tushuntiradi. Har bir zvenodagi talabaning faoliyatini diqqat va sinchkovlik bilan kuzatib borish lozim. Buning uchun zveno ish o'rinlari bo'ylab aylanib turish kerak.

III. Yakuniy yo'l–yo'riq

- Talabalar topshiriqlarni bajarib bo'lganidan keyin o'qituvchi ularda zarur ko'nikma va malakalar shakllanganiga ishonch hosil qiladi.
- Talabalar yo'l qo'ygan xato va kamchiliklar tahlil qilinadi, ularni takrorlamalik uchun oldini olish usullari tushuntiriladi.
- Har bir talabani faoliyati baholanadi va o'qib eshittiriladi. Yaxshi bajargan talabalar rag'batlantiriladi, ayrimlariga tanbeh beriladi.
- Talabalarga uyga vazifa beriladi, adabiyotlar ko'rsatiladi va darsga yakun yasaladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Talabalarining o'z tanlagan kasblari bo'yicha malaka va ko'nikmalarini pog'onali shakllantirib borishda laboratoriya mashg'ulotining ahamiyatini oshirish.

An'anaviy darsda ko'proq savol-javoblar, muammoli savol-javoblar yechimi o'qituvchi rahbarligida amalga oshiriladi, pedagogik shart-sharoitlar yaratiladi.

Ta'lim jarayonida laboratoriya mashg'ulotlarini zamonaviy texnik vositalar bilan jihozlash va uslubiy ta'minotini boyitish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- A. S. Karimov. Nazariy elektrotexnika. Darslik. – T.: O'qituvchi, 2003-y.
- S. F. Amirov, M. S. Yoqubov, N. G. Jabborov. Elektrotexnikaning nazariy asoslari. – Toshkent, 2006-y. – 145 b.
- A. S. Karimov, M. M. Mirxaydarov. Elektrotexnika va elektronika asoslari. – T.: O'qituvchi, 1995-y. – 468 b.
- A. A. Глебович. Лабораторные работы по электротехнике с основами промышленной электроники. Учебное пособие для средних проф.-техн. училищ. Перевод с 4-го переработанного и дополненного издания. – М.: "Высшая школа", 1976-y.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.